

## 2-dars. SANOQ SISTEMALARI HAQIDA

### BUNI BILASIZMI?



Monitor ekranida tasvirlanayotgan axborotlar kompyuter xotirasida ikkilik (ikkilik kod, ikkita holatdan birining qabul qilinishi) ko'rinishida aks etadi. Sanoq sistemalari axborotlarni kodlashning bir turi hisoblanadi. Kompyuterda matn yozishda ikkilik, o'nlik, o'n otilik sanoq sistemalarida kodlash usullari qo'l keladi.

### TAYANCH TUSHUNCHALAR

**Sanoq sistemasi** – sonlarni aniq qoidalar asosida belgilash tizimi.

**Sanoq sistemasi asosi** – sanoq sistemasidagi jami raqamlar soni.

**Sonning razryadi** (xona) – raqamlarning berilayotgan sondagi o'rni.




### TARIXIY MA'LUMOTLAR




Turli davrlarda hisob amallarini bajarish uchun sonlar biror belgi yoki belgilar tizimi orqali ifodalangan. Arqonga tugunlarni bog'lash, tosh va taxtalarga belgi qo'yish sanoq sistemasining dastlabki ko'rinishi hisoblanadi. Barmoqlar yordamida hisoblash beshlik, o'nlik, o'n ikkilik va yigirmatalik sanoq sistemasining rivojlanishiga zamin yaratgan. Bir qancha Afrika qabilalarida, shuningdek, Xitoyda uzoq yillar davomida beshlik sanoq sistemasidan foydalanib kelingan.

Qadimgi Misr o'nlik sanoq sistemasida esa sonlar raqamlarni ketma-ket yozish orqali ifodalangan. Agar raqamlar 9 martadan ortiq kelsa, keyingi razryadga o'tilgan. Har bir razryad uchun maxsus mazmunga ega bo'lgan rasmlardan foydalanilgan.



Qadimgi Misr o'nlik sanoq sistemasi



Qadimgi Mayya xalqi yigirmatalik sanoq sistemasi

## DIQQAT



Sonlarni ifodalovchi belgilarga *raqamlar* deyiladi. Masalan, 25 sonini olaylik, bu yerda ikkita raqam (belgi) – 2 va 5 ishtirok etayotganini ko'rish mumkin.

Sanoq sistemasida mavjud raqamlar birgalikda sanoq sistemasi alifbosini tashkil qiladi. Raqamlar alifbo elementlari, jami raqamlar soni esa sanoq sistemasi asosi (quvvati) deb yuritiladi.

Masalan, o'nlik sanoq sistemasi alifbosi elementlari: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9;

Rim raqamlaridagi sanoq sistemasi alifbosi elementlari: I, V, X, L, C, D, M.

Sanoq sistemasida ifodalanayotgan sonning asosi uning quyi indeksiga yozib qo'yiladi. Masalan:  $1101_2$  son ikkilik sanoq sistemasida yozilganini bildiradi.

Sanoq sistemasining asosini  $p$  deb belgilab olaylik. U o'ndan kichik, ya'ni  $p < 10$  bo'lsa, raqam sifatida o'nlik sanoq sistemasi alifbosidagi 0 dan  $p-1$  gacha bo'lgan raqamlar qo'llaniladi. Agar sanoq sistemasining asosi o'ndan katta, ya'ni  $p > 10$  bo'lsa, u holda 0 dan 9 gacha bo'lgan raqamlardan hamda qo'shimcha belgilardan, odatda, lotin alifbosining bosh harflaridan foydalaniлади.

Agar sanoq sistemasining asosi 10 dan kichik bo'lsa, u holda ushbu sanoq sistemasi alifbosini tuzish uchun 0 dan shu raqamgacha bo'lgan raqamlar olinadi. Masalan, to'rtlik sanoq sistemasi alifbosini yozish uchun 0 dan 3 gacha bo'lgan raqamlar olinadi: 0, 1, 2, 3.

To'rtlik sanoq sistemasidagi sonlarni hosil qilmoqchi bo'lsak, 4 raqamining o'rniغا 10 soni yoziladi va ketma-ketlik davom ettiriladi: 0, 1, 2, 3, 10, 11, 12, 13, 20, 21, ...

#### Sanoq sistemalaridagi raqamlarning ifodalanishi:

Ikkilik	0	1												
To'rtlik	0	1	2	3										
Sakkizlik	0	1	2	3	4	5	6	7						
O'nlik	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9				
O'n otilik	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D

#### POZITSIYALI VA POZITSIYALI BO'L MAGAN SANOQ SISTEMALARI

Agar sonlarni yozishda raqamlar o'z o'rni (razryadi)ga bog'liq bo'lsa, *pozitsiyali sanoq sistemalari* deb yuritiladi. Misol: o'nlik sanoq sistemasi.

325 besh    352 ellik    523 besh yuz

Agar sonlarni yozishda raqamlar o'z o'rni (razryadi)ga bog'liq bo'lmasa, *pozitsiyali bo'l magan sanoq sistemalari* deyiladi. Misol: Misr o'nlik sanoq sistemasi, Rim raqamlari.

XXV besh    XVI besh    VII besh

**DIQQAT**

Biror sanoq sistemasida berilgan sonlarni ifodalash uchun faqat ushbu sanoq sistemasining alifbosida mavjud alifbo elementlaridangina foydalaniladi. Masalan, ikkilik sanoq sistemasida sonlar faqat 0 va 1 orqali ifodalanadi:  $1101_2$ ,  $111010111_2$ .

## **POZITSIYALI SANOQ SISTEMASIDA SONNING IXCHAM VA YOIQ KO'RINISHI**

Pozitsiyali sanoq sistemalarida sonlarni yozishning ixcham va yoyiq usullari mayjud.

Sonlarni ixcham (standart, oddiy) ko'rinishda yozish usulida son raqamlari egallagan razryadiga ko'ra ketma-ketlikda yoziladi:

**$586_{10}$**

Sonlarni yoyiq ko'rinishda yozish usulida son raqamlari va sanoq sistemasi asosining raqamlar razryadlariga mos darajalariga ko'paytmalari yig'indisi ko'rinishida yoziladi:

$$5 \cdot 10^2 + 8 \cdot 10^1 + 6 \cdot 10^0$$

### **AMALIY FAOLIYAT**

**1-masala.** O'nlik sanoq sistemasida berilgan son 30 ga teng. Shu son boshqa sanoq sistemasida 36 ga teng bo'lisa, noma'lum sanoq sistemasi asosini aniqlang.


#### **Yechilishi:**

Noma'lum asos  $x$  deb belgilab olinadi. O'nlik sanoq sistemidagi 30 soni esa  $x$  lik sanoq sistemidagi songa tenglab olinadi:

$$30_{10} = 36_x$$

2. Rasmda foydalanish mumkin bo'lgan sanoq sistemalari asosi va alifbosini aytib bering?

a)



b)



d)

JANUARY	FEBRUARY	MARCH	APRIL
1	1	1	1
2	2	2	2
3	3	3	3
4	4	4	4
5	5	5	5
6	6	6	6
7	7	7	7
8	8	8	8
9	9	9	9
10	10	10	10
11	11	11	11
12	12	12	12
13	13	13	13
14	14	14	14
15	15	15	15
16	16	16	16
17	17	17	17
18	18	18	18
19	19	19	19
20	20	20	20
21	21	21	21
22	22	22	22
23	23	23	23
24	24	24	24
25	25	25	25
26	26	26	26
27	27	27	27
28	28	28	28
29	29	29	29
30	30	30	30
31	31	31	31

MAY	JUNE	JULY	AUGUST
1	1	1	1
2	2	2	2
3	3	3	3
4	4	4	4
5	5	5	5
6	6	6	6
7	7	7	7
8	8	8	8
9	9	9	9
10	10	10	10
11	11	11	11
12	12	12	12
13	13	13	13
14	14	14	14
15	15	15	15
16	16	16	16
17	17	17	17
18	18	18	18
19	19	19	19
20	20	20	20
21	21	21	21
22	22	22	22
23	23	23	23
24	24	24	24
25	25	25	25
26	26	26	26
27	27	27	27
28	28	28	28
29	29	29	29
30	30	30	30
31	31	31	31

SEPTEMBER	OCTOBER	NOVEMBER	DECEMBER
1	1	1	1
2	2	2	2
3	3	3	3
4	4	4	4
5	5	5	5
6	6	6	6
7	7	7	7
8	8	8	8
9	9	9	9
10	10	10	10
11	11	11	11
12	12	12	12
13	13	13	13
14	14	14	14
15	15	15	15
16	16	16	16
17	17	17	17
18	18	18	18
19	19	19	19
20	20	20	20
21	21	21	21
22	22	22	22
23	23	23	23
24	24	24	24
25	25	25	25
26	26	26	26
27	27	27	27
28	28	28	28
29	29	29	29
30	30	30	30
31	31	31	31

Demak,

$$3 \cdot x^1 + 6 \cdot x^0 = 30$$


$$3 \cdot x + 6 \cdot 1 = 30$$

$$3 \cdot x = 24$$

$$x = 8$$

Javob: Noma'lum sanoq sistemasi asosi 8 ga teng.

e)



3. Quyidagi sonlarni yoyiq va ixcham ko'rinishda yozing:

- |                     |  |
|---------------------|--|
| a) $3641_{10}$      | f) $2 \cdot 8^3 + 7 \cdot 8^2 + 5 \cdot 8^1 + 0 \cdot 8^0$ |
| b) $111000111001_2$ | g) $4 \cdot 16^2 + 11 \cdot 16^1 + 1 \cdot 16^0$           |
| d) $7071_8$         | h) $2 \cdot 3^3 + 2 \cdot 3^1 + 1 \cdot 3^0$               |
| e) $104031_5$       | i) $5 \cdot 12^2$  |

4. **Guruhiishi.** Internet ma'lumotlari asosida jadvalni to'ldiring:

Nº	Sanoq sistemasi nomi	Hudud	Sanoq sistemasi asosi
1			

### MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR



1. Sanoq sistemasining asosi, elementlari hamda raqam va son tushunchalari haqida ma'lumot bering.
2. 5, 10, 12, 20 lik sanoq sistemalaridan foydalanish omillarini izohlang.
3. Biror sanoq sistemasini olib, undagi sanoq sistemasi asosi va elementlarini aytib bering.
4. O'nlik sanoq sistemasidagi 4 xonali eng kichik va eng katta sonni yozing.
5. Pozitsiyali va pozitsiyali bo'Imagan sanoq sistemalariga misollar keltiring.
6. Kompyuter qaysi sanoq sistemasi asosida ishlaydi?

### UYGA VAZIFA



1. Internetdan foydalab, sanoq sistemalari haqida ma'lumot to'plang.
2. Ikkilik sanoq sistemasida 6 xonali eng kichik sonni yozing va javobingizni izohlang.
3. O'nlik sanoq sistemasida berilgan son 24 ga teng. U boshqa sanoq sistemasiga o'tkazilganda, 18 ga teng ekanligi aniqlandi. O'tkazilgan son qaysi sanoq sistemasida ifodalanganligini aniqlang.